

SURXONDARYODA UCHROVCHI NOYOB YIRTQICH QUSHLAR VA ULARNI MUHOFAZA QILISH MASALALARI

Hakimova Nilufar Ahror qizi

TerDU Biologiya ta'lim yo'nalishi 4-kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15193034>

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XI bob, 62-moddasida "Fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga majburdirlar", XII bob, 68-moddasida esa "Yer, yer osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zahiralari umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir" deb ta'kidlangan.

Surxondaryo viloyati cheksiz tabiiy resurslarga, turli-tuman nabotot va hayvonot olami vakillariga boyligi bilan ajralib turadi. Bu yerda juda ko'p hayvon turlari uchraydi, ularning ayrimlari turli ta'sirlar natijasida areali torayib, soni kamayib borayotgan, bir so'z bilan aytganda "noyob hayvon" maqomini olayotgan turlardir. Mazkur hayvonlar qat'iy himoyaga muhtoj bo'lib, ularning biologik va ekologik xususiyatlarini chuqurroq o'rganish, ilmiy asoslangan muhofaza choralarini ishlab chiqish eng muhim vazifalarimizdan biridir. Quyida viloyat hududida uchrovchi noyob yirtqich qushlar, ularning kamyoblik darajasi, cheklovchi faktorlar, muhofaza qilish masalari bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

Suvqiyg'ir - Скопа - *Pandion haliaetus* Linnaeus, 1758

Suvqiyg'ir tabiatan kamyob, uchib o'tuvchi nominal kenja tur bo'lib, Surxondaryo viloyati hududida tekisliklardagi va tog' etaklaridagi suvi tiniq havzalar, ya'ni, suv omborlari, ko'llar, daryo bo'ylarida qishlash va uchib o'tish davrida uchraydi. Tabiatda bu qush o'zining ikki xil rangi bilan - orqa tomonidagi to'q qo'ngir va qorin tomonidagi oq rangi bilan ajralib turadi. Ularning soni hamma vaqt kam bo'lgan. Bir necha yuztasi yakka xolda va kichik gala bulib o'chib o'tadi. Suvqiyg'irlarning bahorgi uchib o'tishi mart-may oylariga to'g'ri keladi. Ular turli daraxt va simyog'ochlar ustiga in quradi. May-iyun oylarida 2-3 ta tuxum qo'yadi va 25 kun bosib yotadi. Polaponlari iyun-iyul oylarida ucha boshlaydi. Kuzgi uchib o'tishi avgust-oktabr oylariga to'g'ri keladi. Suvqiyg'irlar baliqlar bilan ovqatlanadi. Keyingi yillarda inson faoliyati natijasida suv rejimining o'zgarishi oqibatida suvqiyg'irlar yashash joylarining yemirilishi, bundan tashqari, elektr uzatish tizimlarida ularning ko'plab nobud bo'lishi bu noyob qush turining keskin kamayib ketishiga sabab bo'lgan. Suvqiyg'irlarni ovlash ta'qiqlangan bo'lib, noyob tur sifatida SITESning II-Ilovasiga va "O'zbekiston qizil kitobi"ga kiritilgan hamda muhofaza ostiga olingan.

Oq dumli suvburgut - Орлан белохвост - *Haliaetus albicilla* Linnaeus, 1758

Oq dumli suvburgut tabiatan kamyob, uchib o'tuvchi nominal kenja tur bo'lib, Surxondaryo viloyati hududida Janubiy Surxon suv ombori va Amudaryo qirg'oqlarida qishlash, uchib o'tish davrida uchraydi. Ularning soni hamma vaqt kam bo'lgan. Yakka holda, juft va guruh bo'lib uchib o'tadi. Oq dumli suvburgutlarning bahorgi uchib o'tishi fevral-mart oylariga to'g'ri keladi. Qirg'oqlarda va suv bo'yidagi baland daraxtlarga in quradi. Mart-aprelda tuxum qo'yadi (1-3 ta) va tuxumlarini 35-40 kun bosib yotadi. Polaponlari iyun-iyulda ucha boshlaydi. Kuzgi uchib o'tishi sentabr-oktabr oylariga to'g'ri keladi. Qishlashi noyabrdan fevralgacha. Ular asosan, baliqlar, mayda sut emizuvchilar (yumronqoziq, dala sichqonlari,

quyon, ondatra va boshq.), qushlar (o'rdak, goz, qashqaldoq, turna, kaklik, bulduruq va boshq.), ba'zida esa o'laksalar bilan ovqatlanadi. Keyingi yillarda inson faoliyati natijasida Orol havzasida suv rejimining o'zgarishi oqibatida yashash joylarining yo'qotilishi hamda brakonerlik oq dumli suvburgutlar sonining keskin kamayishiga sabab bo'lgan. Oq dumli suvburgutlar qat'iy muhofazaga muhtoj tur bo'lib, dunyo va O'zbekiston faunasidagi noyob qush turi sifatida TMXI qizil ro'yxatiga, SITESning I-Ilovasiga va "O'zbekiston qizil kitobi"ga kiritilgan. Ularni ovlash ta'qiqlangan bo'lib, mamlakatimizning bir nechta buyurtmaxonalarida muhofaza ostiga olingan.

Boltayutar - Бородач - *Gypaetus barbatus* Linnaeus, 1758.

Boltayutar tabiatan kamyob, o'troq, lokal tarqalgan tur bo'lib, Surxondaryo viloyati hududida Ko'hitang, Bobotog' tog'larida uyalash davrida uchraydi. Boysun tumani hududidagi dengiz sathidan balandligi 1000-4000 metr bo'lgan Machay, Qizilnavr, Kentala qishloqlari hududida o'troq holda uchraydi. Ko'hitang tog'ida 5-6, Bobotog'da 5 jufti uyalashi qayd etilgan. "Surxon" davlat qo'riqxonasi hududida ularning soni 50-55 boshni tashkil etadi. Qo'riqxonaning Oltikunlik, Tangidevol, Daroyigul, Sovuqbuloq daralarida boltayutarlarning inlari qayd etilgan. Boltayutarlar qoyalarda in quradi. Dekabr-fevral oylarida tuxum qo'yadi (1-2 ta) va tuxumlarini ancha ko'p muddat, ya'ni 55-60 kun bosib yotadi. Polaponlari may-iyun oylarida ucha boshlaydi, ko'chishi nomuntazam. Boltayutarlar asosan tuyoqli hayvonlarning suyaklari, o'laksalar, ba'zida mayda qushlar va kemiruvchilar bilan ovqatlanadi. Keyingi yillarda tabiatda yovvoyi tuyoqli hayvonlarning kamayib ketishi boltayutarlar sonining keskin kamayishiga sabab bo'lgan. Boltayutarlar muhofazaga muhtoj qush turi hisoblanib, noyob hayvon sifatida SITESning II-Ilovasiga va "O'zbekiston qizil kitobi"ga kiritilgan. Ovlash ta'qiqlangan va tog' qo'riqxonalari, milliy bog'larda muhofaza ostiga olingan.

Tasqara - Чёрный гриф - *Aegypius monachus* Linnaeus, 1766

Tasqara o'troq, mozaik tarqalgan tur bo'lib, Surxondaryo viloyati hududida Boysun tog'ining etak va o'rta qismlari, ya'ni, dengiz sathidan 500-2500 metrgacha bo'lgan balandliklarida, Sherobod daryosining o'rta oqimlarida uchraydi. "Surxon" davlat qo'riqxonasi hududida kam sonda uchraydi. Qo'riqxona xodimlari tomonidan 2014-yilgi sanoq davrida 14-15 bosh, 2015-yil bahorgi sanoq davrida 10 bosh uchratilgan. O'tgan asrning 80-yillarida mamlakatimiz hududida taxminan 80 jufti uyalagan bo'lsa, hozirgi vaqtda soni kamayib borayotganligi qayd etilmoqda. Tasqaralar turli xil daraxtlar, butalarda ko'pincha alohida juft bo'lib, tog' qoyalarida esa koloniya bo'lib uyalaydi. Fevral-aprel oylarida bitta tuxum qo'yadi va tuxumlarini 54-56 kun bosib yotadi. Polaponlari iyul-sentabrdan ucha boshlaydi. Ko'chishi nomuntazam. Asosan, tuyoqli hayvonlarning o'laksalari, ba'zida esa toshbaqalar, yumronqoziqlar, kaltakesaklar bilan ovqatlanadi. Keyingi yillarda turli omillar ta'sirida yovvoyi tuyoqli hayvonlar sonining kamayishi va brakonerlik tasqaralar sonining keskin kamayib ketishiga sabab bo'lgan. Tasqaralar muhofazaga muhtoj, noyob qush turi sifatida TMXI qizil ro'yxatiga, SITESning II-Ilovasiga va "O'zbekiston qizil kitobi"ga kiritilgan. Tasqaralarni ovlash ta'qiqlangan bo'lib, tog' qo'riqxonalari va milliy bog'larda muhofaza ostiga olingan.

Tavsiyalar

I. Tabiiy yashash joylarini asrash:

1. Yovvoyi qushlar uchun muhim bo'lgan o'rmonzorlar, tog' etaklari, cho'l va dasht hududlarini buzmaslik.

2. Qushlar uyasi joylashgan daraxtlarni kesmaslik va ularni maxsus belgilar bilan himoyalash.

II. Ilmiy va ekologik monitoring:

1. Noyob qushlar soni, ularning migratsiyasi va holatini doimiy kuzatish.

2. Ekologik pasport va monitoring tizimini joriy qilish.

III. Tarbiyaviy va targ'ibot ishlari:

1. Maktab va OTMlarda ekologiya va yovvoyi tabiatni muhofaza qilish bo'yicha targ'ibot ishlari olib borish.

2. Mahalliy aholiga qushlarni ovlamaslik va muhofaza qilish zarurligi haqida tushuntirish ishlarini yo'lga qo'yish.

IV. Qonuniy choralar:

1. Qizil kitobga kiritilgan qushlarni ovlash va ularga zarar yetkazishga qat'iy taqiq qo'yish.

2. Huquqbuzarlarga nisbatan jarima va jinoiy javobgarlik choralari kuchaytirish.

V. Maxsus qo'riqlanadigan hududlar tashkil etish:

1. Surxondaryo viloyatida maxsus qo'riqxonalar, biosfera rezervatlari va milliy bog'larni kengaytirish.

2. Ekoturizmni rivojlantirish orqali aholiga daromad manbai yaratish, shu orqali tabiatni muhofaza qilishga rag'bat uyg'otish.

Foydalanilgan adabiyotlar/Используемая литература/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (yangi tahriri). Toshkent. O'zbekiston. 2023.
2. O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobi. 2-tom. Toshkent. "Chinor ENK", 2019.
3. Bekmurodov A.S. Surxondaryoning noyob hayvonlari. Toshkent. "Nihol" nashriyoti. 2018 yil. 88 b.